



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

“NOM” XOTIRA ASARIDA AFG‘ON URUSHI FOJIALARI TASVIRI

Mohinur To‘rayeva,
BuxDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “Nom” liro-publitsistik asarida maqsadsiz afg‘on urushi voqealari tasvirlangan. Bu asar xalq dostonlari uslubida – nasr va nazm uyg‘unligida yaratilgan. Maqolada shoirning mazkur asari tahlil etilgan, unga xos muhim xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: liro-publitsistik asar, xotira, ocherk uslubi, falsafiylik, nasr va nazm uyg‘unligi.

Аннотация. В лиро-публицистическом произведении народного поэта Узбекистана Сирожиддина Саййида "Ном" изображены события бесцельной афганской войны. Это произведение создано в стиле народных эпосов - в смешении прозы и поэзии. В статье анализируется данное произведение поэта, освещаются его характерные черты.

Ключевые слова: лиро-публицистическое произведение, мемуары, стиль очерка, философичность, гармония прозы и поэзии.

Abstract. In the lyrical-journalistic work "Nom" by the People's Poet of Uzbekistan Sirojiddin Sayyid, the events of the aimless Afghan war are depicted. This work was created in the style of folk epics - a combination of prose and poetry. The article analyzes this work of the poet and highlights its important characteristics.

Keywords: lyrical-journalistic work, memoir, essay style, philosophical approach, harmony of prose and poetry.

O‘tgan asrning 80-yillarida maqsadsiz afg‘on urushi juda ko‘plab o‘zbek yigitlarining hayotiga zomin bo‘ldi. Bu mavzu o‘zbek adabiyotining deyarli barcha janrlarida o‘z ifodasini topdi. O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanidagi Rustam hayoti ana shu voqeliklardan so‘zlaydi. O.Hojiyevaning “Najot” dostonining bir qismi shu fojialar tasviriga bag‘ishlangan. A.Oripov, M.Yusuf, H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva she‘rlarida “afg‘on qirlarida lolalarga aylangan” zabardast o‘zbek yigitlarining lirik timsoli yaratilgan.

S.Sayyidning liro-publitsistik ruh bilan sug‘orilgan “Nom” asari ham shu mavzu talqiniga bag‘ishlanganligi bilan e‘tiborni tortadi. Asar nasr va nazm uyg‘unligida yaratilgan. Unda afg‘on jangi qurboni, rassom Sirojiddin To‘raxo‘jayev xotirlanadi.

Ko‘p yillar bu mavzu shoirga tinchlik bermagan. Bu haqda shoir asar boshida yozadi: “Afg‘oniston qumlarida yiqilganida askarlar, Men ham yozuv stolimda so‘zsiz yaralanganman. “Saksoninchi yillar” dostonidan o‘rin olgan ushbu satrlar o‘shanda senzura tomonidan olib tashlandi. Jurnal terilayotganda to‘xtatib qo‘yildi. Satrlar o‘rnini to‘ldirish uchun shoshilinch ravishda rassomga surat buyurishdi. Mavzuga mos kelmasa-da doston qoq o‘rtasida didsizlarcha solingan gul rasmi bilan bosilib chiqdi. Men bu so‘zlarni nima uchun yozmoqdaman? Vaqt o‘tib olib tashlangan satrlarni tiklash mumkindir, lekin betayin qatag‘onda halok bo‘lgan o‘g‘lonlarni hayotga qaytarmoq, ularga jon ato etmoqning iloji yo‘q. Ularning o‘rnini hech qanday gul, hech qanday orden bilan to‘ldirib bo‘lmaydi... Salkam o‘n besh ming qurbon, mayib majruhlar soni o‘ttiz yetti mingga yaqin! Bu avlodga nom ham topilgan “Urush ko‘rmagan otalarning urush ko‘rgan bolalari”. Nom” [1, 153]. Shoir dastlab “Saksoninchi yillar” dostonida mazkur mavzuni yoritib bergan. Biroq yillar o‘tib, o‘sha dostonida aytilmay qolgan, ko‘pdan qalbida tugun bo‘lib yotgan afg‘on urushi mavzusi yana unga tinchlik bermadi. Natijada “Nom” deb atalmish yangi bir asar dunyoga keldi.

Asar liro-publitsistik ohangda bitilgan. Shoir nasrda ocherk uslubini qo‘llagan. Unda o‘z qahramoni Sirojiddin To‘rayev (tengdoshi) haqidagi ma‘lumotlarni aniq keltiradi. Shu faktlar, achchiq xotiralardan tug‘ilgan tuyg‘u-kechinmalarini satrlar qatiga jo etgan.

Shoir Sirojiddin To'rayevning yaqinlari: ota-onasi, buvisi iztiroblarini qog'ozga tushirgan. Bor-yo'g'i yigirma bahorni qarshilagan, rassom bo'lmoq niyatida suratlar chizgan, bo'yoqlari qurimay qolgan suratlarda aks-sado berib turgan, orzulari osmon qadar Sirojiddin "1984-yilning 14-yanvarga o'tar kechasi xizmat burchini o'tash vaqtida halok bo'lgan.... 1963-1984. Bu sanalar oralig'ida kechgan muddatni umr deb atashga til bormaydi, bu muddat tug'ilish bilan o'limni ajratib turgan chiziqdan ham qisqa, go'yoki umid gulbarglariga bir qatra shabnam indi-yu quyosh nurlariga yetishmayin yilt etdi-ketdi" [1, 153]. Shoirning umr haqidagi qarashlari falsafiylik bilan yo'g'rilgan. Sirojiddin To'raxo'jayevning xazonga aylangan umri shoir fikricha, "umid gulbarglariga ingan bir qatra shabnam, unga esa quyosh nuri yetishmadi".

Uni o'ldirganlar "dushmanlar" emas,

Uni o'ldirganlar bizning jaholat.

Uni o'ldirganlar elni zavolga

Hamda mamlakatni chohga eltganlar [1, 154].

Shoirning hikoya qilishicha, u Sirojiddin To'rayev xonadoniga kekxa jurnalist Abdulla Po'latov bilan birga bordi. Sadriddin aka (Sirojiddinning otasi), buvisi bilan ro'para kelishdi. Necha yillardan so'ng ham ularning yuzida "tuganmas anduh chirqirab yotardi". Buvining nolayu faryodini shoir shunday tasvir etadi: "Bolam shu yerginada yotardi. Har sahar o'zim uyg'otardim chinnikosani to'ldirib shu qaymoqlardan ichardi olinglar silaga nasib qilgan ekan man Xudodan emas bandasidan ko'raman bolam, bolam ... tirik ketgan bolamni bo'yi ikki metrlik bolamni tobutga solib qaytarishditobut ham kichkina xontaxata keladi tobuini ochirgan qo'yishmadi bu maning bolam emas deb yoqalariga yopishdim... keyin o'rdan berishdi qizil yulduz degan besh yil bo'ldi eshik tiq etsa bolam deyman bolam..." Buvining alamga, g'amga, ayriliqqa to'la iztiroblari qatida o'sha davr minglab onalari va buvilarining anduhlari aks etgan. Ular qalbida "bolam tirik, qaytib keladi" degan umid yashaydi:

Do'stlari kelsa-yu kelmasa bolam,

Do'stlari kulsa-yu kulmasa bolam.

Bir vaqtlar sochini to'zg'itgan shamol

Hovlida yelsa-yu yelmasa bolam.

Yaxshi ko'rgan qizi kelib yig'lasa

So'ngra to'y bo'lsa-yu bilmasa bolam

Suratdan chiqolmay, mo'ltirab zor-zor

"To'ylar muborak"ni tinglasa bolam...

Sahar kosalarga qaymoq to'lsa-yu

Keksaygan bu ko'nglim to'lmasa, bolam.

Kecha topshirishdi "Qizil yulduz"ing

Ordenni "bolam" deb bo'lmasa bolam [1, 155].

Buvi iztiroblariga otaning alamlari qo'shiladi. Ota o'g'li haqida yonib-kuyib so'zlab beradi. Ayniqsa, bolasining kelajakdagi orzulari, rassom bo'lish istagi haqida gapirganda yanayam dili o'rtanadi. Uning umid bilan yozgan xatlaridan so'zlaydi.

Ota, men haqimda gapirib bering

Meni so'rab kelganlarga, yo'qlaganlarga.

Yillar yenggaydirlar Sizni ham oxir,

Dilda sog'inchingiz bog'laydi yiring.

Meni izlab kelgan yozu qishlarga

Ota, men haqimda gapirib bering...

O'zim chizib ketgan o'z suratimga

Ota, men haqida gapirib bering.

Kechiring, to'ylarga buyurmadim men.

Farzandlar singari – Siz haqingizda

Gapirib berishga ulgurmadim men [1, 156].

Ota qalbini o'rtagan armonlar, ko'ngilni vayron qilgan dardlar yuqoridagi satrlarda o'z ifodasini topgan.

Asardagi uchinchi lavha ta'sirchan xatlar bilan bog'liq. Maktublar orasida bittasi bor edi: bu sevgiliga yozilgan xat, orzu va umid nihollari barq urib turgan xat. Xatdan ma'lum bo'ladiki, Sirojiddin o'zi bilan bir kunda tug'ilgan qizga ko'ngil qo'ygan edi. O'lim olov purkab turgan afg'on tuprog'idan unga sog'inch hislariga to'la bir necha maktublar keldi. Biroq orzular ushalmadi, betayin urush unga to'sqinlik qildi.

Shoir ana shu kechinmalarni quyidagicha ifoda etgan:

Bir yilda tug'ilganlar,
Bir oyda tug'ilganlar,
Bir kunda tug'ilganlar,
Bir yurtida tug'ilganlar
Va o'n sakkiz yoshida
Uchrashib, sevilganlar
Uchrashmaslar hech qachon!
Asrlar to'qnashgaydir.
Topishgaydir zamonlar.
Qo'sh oltin xalqa yanglig'
Mos kelgaydir armonlar.
Faqat... o'n sakkiz yoshda
Berilgan ahd-paymonlar
Qolgaydir zoru sarson
Uchrashmaslar hech qachon! [1, 159].

Shoir Sirojiddinning muhabbatga to'la qalbida kechgan tuyg'ularni aks ettirar ekan, ularning maktublarda qolib ketganini, buning sababchisi mash'um afg'on urushi ekanligini alam bilan ifoda etadi. Hayotda uchrashuvlar ro'y berishi mumkin. Biroq jism mavh etilgandan so'ng bu faqat armonga aylanadi.

Asardagi yana bir ta'sirchan epizod Sirojiddinning mo'jazgina, buvisi tomonida changlari artiladigan xonasi bilan bog'liq. Bu joyda xotiralar jonlanadi, suratlar tilga kiradi go'yo: "Endi hech qachon ko'klamda surat chizgani Baxmalning baxmal qirlariga borolmaydi. Ro'zi Choriyev hech qachon Boysunga olib bormaydi uni. Sherali Jo'rayevning yangi qo'shiqlarini eshitolmaydi. Hech qachon! Shu sababli uning "Kuz" suratidagi ko'klam chinqirig'i kishini adoyi tamom qiladi. 1981-yilda chizilgan "Avtoportret"dagi ko'zlar esa yana biroz tikilsangiz ymhig'lab yuboradigan darajada zorlanib boqadilar:

Tunlar derazamda mo'yqalamlaring
Dumli yulduzlarday yuzaveradi.
Oynaning muzlagan varaqlariga
Sening suratingni chizaveradi.
Oyna dosh bermaydi.
Ingraydi oyna,
Raxna-raxna bo'lib yig'layveradi
Terak mo'yqalamin yurgizib shamol
Ko'kka suratingni chizaveradi" [1, 160-161]

Shundan so'ng ular Sirojiddin dafn etilgan qabristonga yo'l oladilar. Bu sukut maskani alamlarini yana ham olovlantiradi. Qabristonda tilovat qilishadi va cheksiz dard va hasrat bilant ortga qaytadilar. Biroq ularga ko'z o'ngida marmar lavhalardan hayotga to'ymagan mas'um ko'zlar tikilib turganday bo'ladi: "Ular suratlarda shu qadar mas'um, shu qadar beozor! Ular – tabassum bo'lib ulgurmagan lablar, sevinchga chog'lanib, shu taxlit mangu surat bo'lib qolgan yuzlar, devorlardagi kemtik nonlar – ular, olinmagan suyunchilar, nasib etmagan to'ylaru buyurmagan kuyovlik sarpolari – ular, onalarining dilida xanjarday zanglagan sog'inch – ular, ular shu qadar mas'um, shu qadar yosh!" [1, 162-163]. Sirojiddin va

uning boshqa tengdoshlari maqsadsiz, ma'nisiz urushning begunoh, o'n gulidan bir guli ham ochilmagan qurbonlaridir. Shu narsa qalblarga qayg'u soladi. Yuqoridagi tasvirlardan shoir dilidan kechgan mahzun tuyg'ularni tuyish mumkin.

Asardagi eng so'nggi epizod yanada ta'sirchan: "General yig'ladi. 1989-yilning 15-fevralida, "Termiz-Hayraton" ko'prigi ustida kuppa kunduzi, butun insoniyat ko'z oldida general yig'ladi! Salkam 15 ming askarning o'limini ko'rib yig'isini ichiga yutgan, 37 mingga yaqin mayib o'g'lonning ko'ziga boqib ko'zyoshini ko'rsatmagan general yig'ladi. "Termiz-Hayraton" ko'prigi ustida kuppa kunduzi, insoniyat ko'zi oldida bronemashinadan tushdiyu peshvoz olgani chiqqan o'n to'rt yashar o'g'lini quchib yig'ladi..." [1, 166] General yig'isida insoniyatning dardi yashiringan. Maqsadsiz urushdagi intilishlari, harakatlari zoye ketgani uchun, yosh o'g'lonlarning umri bevaqt xazon bo'lgani uchun, qalbi ozorlangani, vijdoni uyg'oqligi uchun yig'ladi.

Yuqoridagi tasvirlardan ayon bo'ladiki, shoir mash'um afg'on urushi fojialarini o'zi bilgan, o'ziga tengdosh Sirojiddin To'raxo'jayevning hayoti misolida xotiralar orqali kitobxonga jonlantirib beradi. Zero, memuar xarakteridagi asarda Sirojiddin To'raxo'jayev obrazi o'sha maqsadsiz urush yillarida umri xazon bo'lgan yigitlarning achchiq qismati badiiy ifoda etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сирожиддин Саййид. Қалдирғочларга бер айвонларингни. – Т.: Шарқ, 2005. – 208 б.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.:Navoiy universiteti, 2018. – 487 b.
3. Мусурмон Р. Сўзнинг порлоқ манзили//Ўзбекистон Адабиёти ва санъати, 2005, 25 январь.
4. Quvvatova D., Nazarova D. The rubai genre in the works of Jamal Kamal. The American Journal of Social Science and Education Innovations, (9), 2020. – P.346-352.